



**Tarix
6-sinf
1-BILET**

1. Qadimgi Misr davlati.

Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to‘lay boshlashdi. Fir’avnlar Nubiya va Liviyaga ham yurish qilib, shaharlarni taladilar, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldilar. O‘rtal podsholik fi r’avnları Janubiy Falastin yerlari va Nubiya shimolini Misrga qo‘sib olishga erishdilar.

Mil. avv. XVIII asr oxirida ko‘chmanchi *giksoslar* qabilalari Misrga hujum qildi. Misrliklarning piyoda qo‘sishnalaridan farqli o‘laroq giksoslarning asosiy kuchi otlar qo‘silgan jangovar aravalari bo‘lgan. Bir askar otlarni boshqarib turgan, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarni nishonga olib o‘q uzgan.

2. Xeroniya ostonasidagi jang haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. 338- yilda yunonlar va makedonlarning asosiy kuchi *Beotiyadagi Xeroniya* shahri yaqinida to‘qnashadilar. Qattiq jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo‘llagan yunonlar ustunlikni qo‘lga oladilar. Makedonlar chekina boshlaydilar. G‘alaba qilayotganiga ishona boshlagan yunonlar ular ni quvishga tushadilar. Yunonlarning qo‘sishnari shunda ikki bo‘lakka ajraladi. Ana shu bo‘laklardan biriga Filipp II ning o‘g‘li Aleksandr qo‘mondonlik qilayotgan suvoriy qo‘sishlar qaqshatqich zarba beradi. Yunon qo‘sishnari chekina boshlaydi va tor-mor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo‘ldi. Xeroniya ostonasidagi jangdan So‘ng mag‘lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniya qaram bo‘lib qoldi.

2-BILET

1. Ossuriya podsholigi.

Qadim zamonalarda ossuriyaliklar Frot va Dajla daryolari yuqori oqimidagi kichik hududni egallashgan. Avval *Oshshur* shahri, keyin esa *Nineviya* shahri poytaxt bo‘lgan. Aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va savdo-sotiq edi. Ossuriyaliklar jangari xalq bo‘lgan. Ular qo‘sini yerlarga tez-tez hujum qilib turardilar. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabit etishga erishganlar. Bo‘ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda o‘lpon to‘lagan. Shaharni bosib olgan ossuriyaliklar qal’a devorlarini, uylar va ibodatxonalarini buzib tashlab, aholini asirlikka haydab ketganlar. Yurishlarda raqiblardan tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelar edi. Ulug‘vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to‘lib ketgan. *Oshshurbanapal* hukmronligi davrida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik sopol tax tachalardan



iborat kutubxonasi jamlangan edi. Asta-sekin Ossuriya davlati zaifl ashib bordi. **Mil. avv. 605-yilda** Ossuriya qo'shinlari Bobil va Midiya tomonidan qirib tashlangandan keyin davlat zavolga yuz tutdi.

2. *Fermopil jangi haqida ma'lumot bering.*

Yangi urushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etdi. Yunonistonga qarshi uning o'g'li Kserks yurish boshladidi. **Mil. avv. 480 - yilda** Kserks qo'shini shimoliy Yunonistonni ishg'ol giladi. Tog'lardagi *Fermopil darasi* Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l edi. Yunonlar o'sha joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi. Yunonlar qo'shining Sparta podshosi *Leonid* boshchilik qilgan. U forslarning hujumlarini qaytarib turgan. Biroq bir sotqin forslarga tog'lar orqali o'tgan boshqa yo'lni ko'rsatib bergen. Bundan xabar topdan Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi. Ushbu voqeя «*Uch yuz spartalik jasorati*», deb tarixda mashhur bo'lib qolgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo'shinlari O'rta Yunonistonga yetib borib, Afi nani ishg'ol qilganlar.

3-BILET

1. *Bobil podsholigi.*

Miloddan avvalgi II-ming yillikda *Bobil podsholigi* Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil qulay geografik o'ringa ega bo'lib, Frot va Dajla daryolarining o'zanlari bir-biriga yaqinlashib ketadigan hududda joylashgandi. Kemalarda turli mahsulotlar bilan suzib kelgan savdogarlar bu shaharga qo'nib o'tishar. «*Bobil*» so'zining o'zi esa «*xudolar darvozasi*» degan ma'noni anglatadi. Bobil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodat xonalar bo'lgan. Bobilning bosh ko'chasi g'alaba ilohasi *Ishtar darvozasidan* boshlangan. Bobil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdosotiқ rivojlangan. Ammo o'zaro urushlar ham bo'lib turgan.

2. *Buyuk Xitoy devorining qurilishi.*

Miloddan avvalgi 656 yilda Chu devorining devorlari "To'rtburchaklar devori" deb ataladi, Chusni shimolda kuchli qo'shnilaridan himoya qilish uchun qurilgan. Devorning ushbu qismi hozirgi Henan provintsiyasida joylashgan. Bu erta devor Chu davlatining chegarasi bo'ylab kichik shaharlar bilan bog'liq edi. Boshqa davlatlar o'zlarining chegaralaridagi devorlarni qurish amaliyotini davom ettirishni davom ettirishdi. Miloddan avvalgi 221 yilgacha Qin sulolasi davrida Buyuk devorni hozir bilganimizdan so'ng uning shaklini olishni boshladilar. Qin sulolasi: "Birinchi" Buyuk devor Qin Shi Huang Xitoyni markazlashgan feodal davlatga

aylantirdi. Uning yangi tashkil topgan davlatini himoya qilish uchun Qin, katta mudofaa barikatina ehtiyoj bor edi. Loyihada ishlash uchun to'qqiz yil davom etadigan bir million askar va ishchi jo'natdi. Yangi devor Chu shtatida qurilgan mavjud devorlardan foydalanilgan. Yangi, Buyuk devor, shimoliy Xitoyni zamonaviy Mo'g'ulistondan boshlagan. Ushbu devorning eng kichik qismi hozirgi (Ming era) devoridan ancha shimolda joylashgan. Han Dynasty: Buyuk devor kengaytirilgan Xan xonadonlari davrida (mil. Avv. 206-yil 24-yillar) Xitoy Xitoy bilan jangga kirdi va devor zamonaviy Gansu provintsiyasidagi G'arbiy Xitoyga 10.000 kilometr (6.213 milya) masofadagi eski devorlar yordamida kengaytirildi. Bu davr eng jadal qurilish davri va hozirgacha qurilgan devorning eng uzun qismidir. Shimoliy va janubiy sulolalar: Ko'proq devorlar qo'shilgan Ushbu davr mobaynida 386-581 yillar oralig'ida to'rtta sulola qurildi va Buyuk devorga qo'shildi. Shimoliy Vey (386-534) Shanxi provintsiyasidagi 1000 kilometr (621 milya) devorni qo'shdi. Sharqiy Vey (534-550) faqat qo'shimcha 75 kilometrni (47 milya) qo'shdi. Shimoliy Qi (550-577) sulolasini Qin va Xan davridan buyon 1500 kilometr (932 milya) uzoqlikda devorning eng uzun kengaytmasini ko'rdi. 579-yilda Shimoliy Chju (557-581) dynastik hukmdori imperator Jingdi Buyuk devorni ta'mirlashdi. Ming sulolasini: devorning ahamiyati yangi yuksaklikka ko'tarilmoqda Ming sulolasini (1368-1644) davrida Buyuk devordi yana bir muhim mudofaa chizig'iga aylandi. Imperatori Zhu Yuanzhang o'z hukmronligining boshida ta'mirlash ishlari boshlangan. U o'zining devorini ta'mirlash va qasr va qo'riqchilarni qurish uchun o'g'li Zhu Di va uning generallerinden birini tayinladi. Ming uchun Buyuk devor, oxir-oqibatda, Mo'g'ullarni shimoldan Pekinni bosib olish va bosib olishdan to'xtatishga yordam berdi. Keyingi 200 yil mobaynida devor oxir-oqibat 7,300 km (4,536 milya) ni tashkil etgan. Ming devorining qurilishi bugungi kunda sayyoohlarning ko'pchiligi qiziqish uyg'otadi. Shayxa sha'rida shēng viloyatida boshlanadi va Gobi cho'lining chekkasida Gansu provintsiyasidagi Jiayuguan pasida g'arbda tugaydi. Gansu provintsiyasidan Jiayuguan dan Yumenguangacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganingizda, (Ming pre-Ming shaklida) devor (devor) oldingi qismida joylashgan bo'lishi mumkin, chunki oxirgi 500 kilometrda (310 mil) Xan xonadonidagi Buyuk Ipak yo'li bo'ylab "Xitoy" ga.

4-BILET

1. Urartu podsholigi.

Urartu davlati Kavkazortidagi, hozirgi Turkiya sharqiy qismida va Armaniston hududlarida joylashgan. Aholisini *urartlar* deyishgan. Yagona davlat tashkil topishini mudofaa qilish zarurati Ossuriya hujumlaridan tezlashtiradi. **Mil. avv. IX-VIII asr boshlarida** Urartu davlati gullab-yashnadi. *Tushpa* shahri Urartu davlati poytaxtiga aylanadi. Urartlar bir necha bosqinchilik yurishlariga chiqadilar va ossuriyaliklar ustidan g'alaba qozona dilar. Ammo keyinroq ossu ri yalik larning qo'shinlari urartlarni tor-mor etib tashladi. *Teyshabaini* shahridagi qal'a ish g'ol etildi va vayron qilib tashlandi. Shundan ke yin Urartu podsholigi ancha zaifl ashib qoldi.

2. Salamin jangi haqida ma ’lumot bering.

Yunonlar va forslar o’rtasidagi hal qiluvchi dengiz jangi **mil.avv. 480-yilda** tor *Salamin bo’g’ozida* bo‘lib o’tdi. Yunonlarda 200 ta harbiy kema – *tryeralar* mavjud edi. Bu kemalar qoyalar orasidan va sayoz joylardan oson suzib o’tar, o’sha davr uchun katta tezlikda – soatiga 18 kilometr tezlikda suza olgan. Yunon shahar-davlatlarining birlashgan fl o ti forslarning harbiy fl otidan kuchli bo’lgan. Yengilganidan keyin Kserks Yunonistonni tark etishga majbur bo’ldi.

5-BILET

1. Afina davlati.

O’rta Y unostoning janubiy sharqiy qismid a tog‘ lik *Attika* viloyati joylashgan y arimorol mavjud edi. **Mil. avv. 2-ming yillikda** Attikaning g‘arbiy qismida yu nonlar «*Akropol*», ya’ni «*Yuqori shahar*» deb atalgan qal’a quradilar. Borabora Akropol tevaragiga odamlar ko‘chib kelib o‘rnasha boshladilar. Shu tariqa Afina shahri vujudga keldi. Attika aholisi uchta katta guruhgaga bo‘lingan, jumladan: *fuqarolar, chet elliklar – meteklar va qullar*. Otasi va onasi ozod afi naflik bo‘lgan erkaklargina Afi na fuqarosi bo‘la olgan. Afina davlati fuqarosi bo‘lish faxrli edi. Faqat fuqarolargina barcha huquqlardan foydalana olardilar. Ular og‘ir mehnat va salomat likka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingan edilar. Afi na daylatiga kumush konlarining mahsuloti va tuz qazib olish katta daromad keltirgan. Bundan tashqari, Afi na dengiz ittifoqi mustahkamlanishi bilan dengiz savdosи ham rivoj topadi. Afi naning asosiy portiga aylangan *Pirey* bandargohidan mamlakatga xilma-xil tovarlar bilan qullar ham keltirilgan.

2. Xristianlikning vujudga kelishi haqida ma ’lumot bering.

Milodiy I-asri boshlarida Rim hokimiyyati ostida bo‘lgan Falastin yerlaridagi *Vifl eem* shahrida «Xudoning o‘g‘li» nomini olgan *Iso* tug‘ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan. *Rivoyatlarga ko‘ra, 30 yoshida Iso o’n ikki nafar havoriyları (apostollar)* bilan Falastin bo‘ylab sayohat qilib, Xudo oyat lari haqida hikoya qilib beradi va mo‘jizalar ko‘rsatadi – yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarни davolaydi. *Mahalliy ruhoniylar Iso payg‘ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o‘lim jazosiga mahkum etadilar.* Rim noibi Pontiy Pilat bu hukmni tasdiqlagan. *Rivoyatlarga ko‘ra, Isoni yer yuzidagi ilk inson – Odam ato dafn etilgan Golgofa tog‘ida xochga tortganlar.* *Vafotidan keyin murdasini bir g‘orga qo‘yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganlarida Iso Masih jasadi qo‘yilgan joyida yo‘qligini ko‘rishadi.*

Odamlar Iso payg‘ambarning qayta tirilib, me’rojga ko‘tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishiga ishonganlar. Iso Masih haqidagi rivoyatlar *Yevangeliya (Injil)* nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so‘z «Xushxabar» ma’nosini anglatadi. Iso payg‘ambar ta’limoti izdoshlari *xristianlardir*. Shogirdlari apostollar (havoriyalar) deb atalgan. Xristianlar jamoalariga *yepiskoplar* peshvolik qiladi.

Milodiy I asr – xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi.

6-BILET

1. Salavkiylar davlati haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. 323-yil Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U barpo etgan davlat uch qismiga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo‘linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarildi. Uzoq davom etgan o‘zaro urushlardan keyin, **mil. avv. 312-yilda kichik** Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri *Salavka Bobil* (Suriya davlati) hukmdori bo‘ldi. Salavka davlatining tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfi ya, Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona kirar edi.

Salavk o‘z davlati tarkibiga kirgan O‘rta Osiyoni alohida viloyatlar – satrapliklarga ajratdi. Ularning har biriga boshliq satrap hukmronlik qilar edi. Davlat mudofaasi va qo‘sishlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan *strateglar* shug‘ullanar edi. Salavk o‘z o‘g‘li Antioxni Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyonaga noib etib tayinladi. Antiox ulkan davlat boshida turib, uni 20 yilga yaqin boshqardi.

2. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.

Zardushtiylik paydo bo‘lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya’ni quidorlik davri endi paydo bo‘layotgan davr edi. U urug‘-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quidorlarga, zolim va mazlumlarga bo‘linayotgan davr bo‘lgan. Bu din eng avval O‘rta Osiyo, so‘ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi. Butun O‘rta Osiyo moddiy va ma’naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u erda yashagan turkiy elatlar bo‘lgan, shulardan o‘zbek elati tashkil topgan. Zardushtiylik eradan avvalgi 7-6 asrlarga xos bo‘lgan din sifatida undan oldingi urug‘ qabilachilik dirlari negizida paydo bo‘lgan yakka xudolik dini bo‘lgan. U to 7-9 asrlargacha turli shaklda davom etib, so‘ng o‘rnini islom egalladi. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, yaqin va o‘rta Sharqqacha tarqalib, ayrim qoldiqlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Vujudga kelishi. Zardushtiylik mil. av. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahy orqali e’lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysiadir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko‘p ta’sir o’tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi uqidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g’oyalar

yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masalalar emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir. Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtra, Zarduts, Zoroatsr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'limganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloq qilib, yangi dinga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor. Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy Eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni mil. av. XI asrdan to mil. XII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan. Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdaridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olov Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», deyiladi. «Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimiyligi tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo'l» Sug'd (So'g'd), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi.

7-BILET

1. Yunon-Baqtriya davlati haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish *Diodot* o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. **Mil. avv. 250-yilda** Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfi ya Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyyona ham kirgan. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidemga* o'tadi. Yevtidemning o'g'li *Demetriy* hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olindi. Parfi yada hokimiyat *Mitridat I* qo'liga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladiki, bu hol uning kuchsiz anishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi *yuechji* qabilalari **mil. avv. 140 –130-yillar** oralig'ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

2. Yunonlarning dengizdagi sayohatlari haqida ma'lumot bering.

Qadimgi Yunoniston — Bolqon ya.o.ning jan., Egey dengizidagi orollar, Frakiya sohillari, Kichik Osiyoning g'arbidagi dengiz sobilida joylashgan qadimiy yunon davlatlari hududining umumiy nomi.

Tarixi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Yu. hududida odamlar paleolit davridan yashab kelmoqda. Xalkidika ya.o.dan neandertal odamining bosh suyagi chiqqan. Neolit davrida Yu. aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirgan. Yu.ning jez davri madaniyati shartli ravishda Kritmiken madaniyati yoki Egey madaniyati deb atalgan

8-BILET

1. Davan davlati haqida ma'lumot bering.

Davan davlati (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi) taxminan, **mil. avv. III asrda** paydo bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan. Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Davan davlatining poytaxti Ershini qo'lga kiritdilar, biroq aholisining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishgan. Davan davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rinn tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onanining zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «Samoviy» deb nom bergenlar. «Samoviy otlar» baquvvat va chopqir bo'lgan. Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Ko'p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va mashq



ko‘rgan qurolli kuchlariga ega bo‘lgan Davan **mil. avv. II-I asrlarda** yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan. Davan davlatining *Sho‘rabashat, Uchqo‘rg‘on* singari shaharlari atrofi dagi aholi yerni ishslash, sholi va bug‘doy yetishtirish, bog‘dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy III asrda Davan davlati barham topgan.

2. Yunon koloniyalarining tashkil topishi.

Qadimgi Yunonistonda odagonlardan qarzdor bo‘lib qolgan, o‘z yer va mulkiga ega bo‘lmasan ko‘plab kishilar o‘z vatanini tark etishga, begona yurtlarda omadini sinab ko‘rishga majbur bo‘lganlar.

Yersiz, nochor yunonlar safarga chiqishga hozirlana boshlaydilar. Jo‘nab ketish oldidan ular xudolarga qurbanliklar bag‘ishlashgan. O‘zlari bilan birga loy surtilgan qamishdan to‘qilgan savatchalarda olov ham olishgan.

Olov ayni mahalda ular umrbod tark etgan vatanning bir parchasi edi. **Mil. avv. VIII – VI asrlarda** ko‘pdan-ko‘p yunon koloniyalari tashkil topdi. Bu davr tarixda *Buyuk Yunon koloniyalashtirishi* nomini olgan. Qora dengiz sohillarida *Olviya, Xersones, Pantikapey* va boshqa yirik koloniylar vujudga keldi.

9-BILET

1. Kushon davlati haqida ma’lumot berling.

Kushon davlatida yashagan xalqlarning o‘zaro madaniy va savdo-sotiqlari aloqalari tufayli O‘rta Osiyoda qadimgi **oromiy yozuvi** keng tarqaladi. Bu yozuv G‘arbiy Osiyoda paydo bo‘lib, alifboga asoslangani tufayli o‘zlashtirish ancha oson bo‘lgan. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o‘rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan. Kushon mamlakatida yana kushon shaklli yozuvi mavjud bo‘lgan, bunda harfl ar burchakli, to‘rtburchak va aylana shaklida yozilgan. Kushon podsholigida yozuv qadimdan mavjudligini *Surxko‘tal* (Afg‘onistonning Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi. Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so‘g‘diy yozuvlari ham keng tarqalgan edi. Yozuvning turli ko‘rinishlariga oid topilmalar Kushon podsholigining jahondagi ko‘plab davlatlar bilan keng ko‘lamdagi aloqalaridan guvohlik beradi.

Diniy e’tiqod Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya, So‘g‘diyonaning asosiy aholisi zardushtiylik dinida edi. Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo‘shib olinib, yaqindan aloqalar o‘matilgach, Kushon davlati hududiga kirib kelgan buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga milodiy VIII asrgacha O‘rta Osiyoda saqlanib qoldi. Aynan Surxon vohasi orgali buddaviylik O‘rta Osiyo

bo‘ylab tarqala boshladi.

2. Mezolit davri haqida ma’lumot bering.

Mezolit davri (o‘rtalik davri) **miloddan avvalgi 12 – 7-ming yilliklarni** o‘z ichiga oladi. Mezolit davri boshlanishi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi. Bu voqealarda qarshisiga qaraganda o‘zgarishiga olib keldi. Mezolit davrida inson o‘q-yoy yasashni o‘rganib oldi. O‘q-yoy kashf etilishi bilan odamlarda chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi. Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo‘lga o‘rgata boshladi. Ovchilar itni qo‘lga o‘rgatdilar. Itlar bilan birga ov qilinganda o‘lja oldingisiga qaraganda mo‘l-ko‘l bo‘ldi. Tiriklayin tutib olingan hayvonlar (qo‘zichoqlar, uloqchalar, to‘ng‘izchalar)ni endi odam lar o‘ldirmasdan, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo‘yadigan bo‘ldilar. Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo‘jalikning yangi tarmoqlari – **ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik** vujudga keldi.

Bugungi kunda O‘rtalik Osiyoda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg‘ona vodiysining tog‘oldi va tog‘li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O‘zbekistonning janubida bunday manzilgohlar ko‘plab uchraydi. *Obishir, Qo‘shilish va Machay* manzilgohlari, shuningdek, *Zarautsoy* darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o‘rganilgan.

10-BILET

1. Afinada davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.

Afi na shahrida markaziy maydon bo‘lib, uning tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turgan. Maydon esa agora deb yuritilgan. U xalq yig‘ini maydoni bo‘lgan. Shahar aholisining ko‘philiginini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan. Afi na shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o‘z fi kr-mulohazalarini bayon eta olar edilar. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qo‘nunlarni muhokama qilish uchun har oyda to‘rt marta agorada yig‘ildilar. Barcha qarorlar ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli demokratiya deb ataladi, ya’ni bu atama «xalq hokimiyyati» degan ma’nioni anglatadi («demos» – xalq + «kratos» – hokimiyat).

2. Yunon-forsurushlari haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. V asr boshlarida Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Doro I hukmronlik qilayotgan Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilgan. Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari paydo bo‘lib, ular: «*Bizning hukmdorimiz, buyuk shahanshoh Doro, kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan- bir egasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir*», deb baralla aytishardi. Yunonistondagi ayrim shaharlar aholisi forslarga qarshilik ko‘rsatishning sira iloji yo‘q deb hisoblab, shoh Doro I ning shartlarini qabul qilishga rozi edilar.



Afi na va Sparta bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afi naga kelganda, shahar aholisi g‘azabdan ularni o‘ldirib, qoyadan tashlab yubordilar. Elchilarni chuqur quduqqa tashlab yuborgan spartaliklar esa zaharxandalik bilan: «*Suvni ham, yerni ham quduq tubidan yetarlicha olasizlar*» deyishgan ekan. Fors shohi dastlab Kichik Osiyodagi yu non shaharlarini bosib olib.

11-BILET

1. Qadimgi Xitoy Sin sulolasi davrida.

Sin (aynan — toza) — Xitoyda hukmronlik kilgan manjur imperatorlari sulolasi (1644—1911). S. sulolasi hukmronligini 4 ta yirik davrga bo‘lish mumkin: 1) manjurlarning Xitoya bostirib kirganidan Min davlati chegaralarida S. tuzumini o‘rnatalishigacha (1644—83; Shunchji va Kansi hukmronligi); 2) 17-asrning 80-yillaridan 18-asrning 70-yillarigacha — Xitoyda S. tuzumining nisbatan turg‘un ichki siyosati va Xalxadagi mo‘g‘ul knyazliklari, Amurdagi rus qishloqlari, Jung‘or xonligi, Tibet, Sharqiy Turkiston, Vyetnam, Birma, Nepal va boshqalarga nisbatan bosqinchilik yurishlari (Kansi, Yunchjen va Syanlun hukmronliklari) davri; 3) 18-asrning 70-yillaridan 19-asrning oxirigacha, ya’ni S. monarxiyasini 19-asr o‘rtalarida kapitalistik davlatlar agressiyasi natijasida ichki nizolarning kuchayishi (Syanlun, Szyatsin, Daoguan, Syanfin, Tunchji, Guansyuy hukmronliklari) dav-ri; 4) 1894—95 yillardagi Yaponiya — Xitoy urushidan Sirlarning taxtdan voz kechgunlarigacha bo‘lgan davr. S. im-periyasi imperialistik davlatlarning yarim mustamlakasiga aylangan. Sinxay inqlobi natijasida S. sulolasi hukmronligi ag‘darib tashlangan (so‘nggi manjur imperatori Pu I 1912 y. 12 fevralda taxtdan rasman voz kechgan).

2. O‘rta Osiyoning temir davriga o‘tishi. .

Bosib olingen mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun ahamoniylar yagona davlatni alohida viloyat — *satrapliklarga* bo‘lib tashladilar. Bu so‘z forscha «xshatra» — «viloyat» so‘zidan kelib chiqqan. Viloyat boshlig‘i — *satrapga* cheklanmagan hokimiyat berilgan edi. Satraplarning ko‘philigi ahamoniylar sulolasining vakillari bo‘lgan. O‘rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari uch satraplikka bo‘linadi. Har bir satraplik yillik soliq to‘lagan. Bundan tashqari, qaram xalqlar saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan. Soliqni kumush, chorva mollari (otlar, tuyalar, qo‘ylar), hunarmandchilik buyumlari (sopol idishlar, qurol- yarog‘, zeb-ziynatlar), kiyim-kechak va hayvonlar terisi bilan to‘lashgan. Doro I va uning vorisi Kserks hukmronligi davrida bosib olingen viloyatlardagi O‘rta O siyo xalqlari yunon-fors urushlarida ham qatnashganlar. Mashhur Marafon jangida (mil. avv. 490-yil) fors qo‘sishlari markazida bo‘lgan saklar muvaffaqiyatli urushgan. Gerodot Kserks boshchiligidagi yunonlar ustiga yurish qilgan o‘rtaosiyolik jangchilar

qurol-yarog‘larini mufassal tasvirlagan. Baqtriyaliklar kamon va nayzalar bilan, saklar xanjar va jangovar boltalar bilan, xorazmiylar va so‘g‘diylar baqtriyaliklarniki kabi qurol-aslahalari bilan jangga kirishgan. Sak va baqtriya

suvorilari Kserks qo‘shindagi eng yaxshi jangchilardan hisoblangan.

12-BILET

1. Qang‘ davlati haqida ma ’lumot bering.

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang‘yuy* deb atalgani ma’lum. **Mil. avv.** **III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, *Qanqa* – *Qang‘xa shahar-qal’asi* saklarning o’sha kezlardagi poytaxti *Qang‘dez* bo‘lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. *Qang‘* davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo‘ylab joylashgan. Miloddan avvalgi II asr oxirida *Qang‘* qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hu kmdorlari o‘z nomidan tangalar zarb qildir ganlar. *Qang‘* davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o‘troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati v ujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i o‘tganligi davlat iqtisodining

gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko‘chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiغا sabab bo‘ldi. Bu urushlarda qang‘arlar (*Qang‘* davlati aholisini shunday atashgan) ko‘pincha g‘olib chiqar edilar. Milodiy III asrda *Qang‘* davlati parchalanib ketdi.

2. Misrliklarning mashg‘ulotlari haqida ma ’lumot bering.

Nil daryosi dalalarni suvgaga bostirib, keng-mo‘l oqqan yillarda misrlik dehqonlarning hosili ham barakali bo‘lgan. Misrlik dehqonlar bug‘doy va arpa, shuningdek, poliz ekinlarini ekishgan, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to‘qisligan. Nil vodiysida uzum, qovun, anor, xurmo, piyoz, bodring, loviya kabi meva va sabzavot yetishtirilardi. Qadimgi zamonda yerga omoch bilan ishlov berib, urug‘ qo‘lda sepilgach, urug‘likni yerga singdirish uchun qoramollarni daladan haydab o‘tishgan. Mehnat qurollari takomillashishi bilan ziroatchilar omoch va hayvonlar kuchidan foydalana boshlashdi. Misrliklar sigir, qo‘y-echki, cho‘chqalarni boqishgan. Ziroatchilar ho‘kizlardan dala ishlarida foydalanishgan.

Misr dehqonlari yerga urug‘ sochish va hosilni yig‘ishtirib olish ishlarini g‘ayriodatiy muddatda o‘tkazishgan. Iyul-sentabr oylarida ular dam olishar va urug‘likni ekishga hozirlashardi. Negaki, bu mahalda barcha dalalarni suv bosardi. Kuzda dalalarga urug‘ ekilgan. Qishda esa hosil yig‘im-terimi boshlangan. Boshqlarni mis o‘roqlar bilan o‘rib olib,



so‘ngra maxsus joyga tashib, bug‘doy yoki arpa bog‘lamlari ustidan hayvonlarni haydab o‘tib, hosilni yanchishgan. Xirmonjoydan chiqqan don spool xumlarda saqlangan. Bu tadbir donni son- sanoqsiz kemiruvchilar – zararkunandalardan omon saqlardi.

13-BILET

1. Yunon-Baqtriya davlati.

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo‘lmish *Diodot* o‘zini podsho deb e’lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. **Mil. avv. 250-yilda** Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfi ya Baqtrianing raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So‘g‘diyona va Marg‘iyona ham kirgan. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidem*ga o‘tadi. Yevtidemning o‘g‘li *Demetriy* hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo‘ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo‘sib olindi. Parfi yada hokimiyat *Mitridat I* qo‘liga o‘tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo‘ladiki, bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo‘ldi. Bundan foydalangan ko‘chmanchi *yuechji* qabilalari **mil. avv. 140 –130-yillar** oralig‘ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

2. Olimpiya o‘yinlarining yujudga kelishi va o‘tkazilish tarixi.

Sport barcha yunonlar uchun sevimli mashg‘ulot bo‘lgan edi. **Mil. avv.**

776-yilda ilk bor Olimpiya o‘yinlari o‘tkazilgan. Ana shu sanadan boshlab har to‘rt yilda bir marta Olimptog‘ida muqaddas olov Quyosh nurlaridan yondirilib, Yunonistonning to‘rt tarafidan kelgan sportchilar beshkurashda bellashar edi Beshkurash esa uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish va kurashdan iborat bo‘lgan. Otchoparda aravalarda va otlarda poyga uyushtirilar edi. Odamlar va sportchilar Olimpiyaga eson-omon yetib kelishlari uchun o‘yinlar o‘tkazilayotgan paytda urushlar to‘xtatilgan. Yunonistondagi Olimpiya o‘yinlari Olimp xodosi Zevs sharifi ga bag‘ishlab o‘tkazilgan. Afsonalarga ko‘ra, Olimpiya o‘yinlari asoschisi Gerakl hisoblangan. Olimpiya o‘yinlarida faqat jinoyat sodir etmagan, sha’niga dog‘ tushirmagan ozod yunon ishtirot etishi mumkin bo‘lgan. Musobaqalarda uch karra g‘alaba qozongan sportchi Olimp tog‘ida o‘z haykalini o‘rnattirishga haqli bo‘lgan. Yunonlar yil hisobini ham Olimpiya o‘yinlariga qarab yuritganlar. G‘oliblar muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to‘qilgan gulchambar bilan taqdirlanganlar. Xristian dini tarqalishi natijasida xudo Zevs



sharafi ga bag'ishlangan Olimpiya o'yinlari man qilinadi. **Mil. 394-yilda** sodir bo'lgan zilzila oqibatida Olimpiya o'yin maydoni vayron bo'lib, qadimgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish butunlay to'xtab qoladi.

Nihoyat, **1896-yilda** Olimpiya o'yinlari qayta tiklandi. Olimpiya o'yinlari ochiladigan kunda qadimgi mash'ala yoqish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Quyosh nurlaridan yondirilgan mash'ala Olimpiya musobaqalari o'tkaziladigan joyga keltiriladi.

14-BILET

1. Davan davlati haqida ma'lumot bering.

Davan davlati (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi) taxminan, **mil. avv. III asrda** paydo bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan. Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Davan davlatining poytaxti Ershini qo'lg'a kiritdilar, biroq aholisining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishgan. Davan davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rinn tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onanining zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «Samoviy» deb nom bergenlar. «*Samoviy ollar*» baquvvat va chopqir bo'lgan. Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Ko'p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlariga ega bo'lgan **Davan mil. avv. II-I asrlarda** yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan. Davan davlatining *Sho'rakashat, Uchqo'rg'on* singari shaharlar atrofi dagi aholi yerni ishslash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy III asrda Davan davlati barham topgan.

2. Fermopil jangi haqida ma'lumot bering.

Yangi turushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etdi. Yunonistonga qarshi uning o'g'li Kserks yurish boshladi. **Mil. avv. 480 - yilda** Kserks qo'shini shimoliy Yunonistonni ishg'ol giladi. Tog'lardagi *Fermopil darasi* Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l edi. Yunonlar o'sha joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi. Yunonlar qo'shiniga Sparta podshosi *Leonid* boshchilik qilgan. U forslarning hujumlarini qaytarib turgan. Biroq bir sotqin forslarga tog'lar orqali o'tgan boshqa yo'lni ko'rsatib bergan. Bundan xabar topdan Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi.



Ushbu voqea «*Uch yuz spartalik jasorati*», deb tarixda mashhur bo‘lib qolgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo‘sishlari O‘rta Yunonistonga yetib borib, Afi nani ishg‘ol qilganlar.

15-BILET

1. Rim Respublikasi.

Rim — Italiyaning davlatining poytaxti. Rim provinsiyasi va Latsio viloyatining ma’muriy markazi. RIMning g‘arbiy qismida Vatikan shahardavlati joylashgan. RIM — dunyoda eng qad. va tarixiy hamda madaniy yodgorliklarga boy shaharlardan bo‘lib, "mangu shahar" nomini olgan. Shahar vulkanik kelib chiqqan sertepa tekislikda, Tibr daryosining har ikki soxilida, uning Tirren dengiziga quyilish yerida joylashgan. Ikdimi O‘rta dengizga xos ikdim, yanvarning o‘rtacha temperaturasi 6,8°, iyulniki 26°. Yillik yog‘in 500 mm dan ziyod (asosan, kuzda yog‘adi). Qishda sovuq tramontana, yezda quruq va issiq sirokko shamollari e sadi. Rim — Italiyaning aholisi eng ko‘p shahri, 2,4 mln. kishi (2001). 19-asrgacha aholisi sekin ko‘paygan, 1871 - yilda RIM Italiya qirolligi poytaxti deb e’lon qilingach, aholisi tez sur’atlarda o‘sdi.

"Rim" nomi shaharning afsonaviy asoschilaridan bir bo‘lgan Romul nomi bilan bog‘liq. Qad. manbalarga asosan RIMga mil. av. 754—753 yillarda asos solingen. Kichikroq shahardavlat hisoblangan Rim Apennin yarim orolini, keyinroq atrofdagi hududlarni sekinasta o‘ziga bo‘ysundirgan holda O‘rta dengiz bo‘yidagi ulkan Qad. Rim davlatining poytaxtiga aylandi (qarang Rim, Qadimgi Rim). Antik RIM yirik shahar bo‘lib, o‘zining juda ko‘p ibodatxona, saroy, yo‘llari va h.k. bilan mashhur bo‘lgan. Konstantin I tomonidan poytaxtning Konstantinopol shahriga ko‘chirilishiga (330 yil) bog‘liq ravishda RIM o‘zining avvalgi siyosiy mavqeini yo‘qotdi. Shahar Vizantiya bilan ostgotlar o‘rtasidagi urushda ayniqla vayron qilindi. 552 yildan RIM Vizantiya hukumronligi ostiga o‘tdi. 568 yildan 8-asr o‘rtalarigacha shaharni rim yepiskoplari — papalar boshqardilaRim 756 yildan Papalikning poytaxti bo‘lgach, shahar G‘arbiy Yevropaning siyosiydiniy markaziga, Rim papalarining qarorgohiga aylandi. O‘rta asrlar davomida RIM uchun Papa hokimiyati va "Muqaddas Rim imperiyasi" imperatorlari o‘rtasida kurash davom etgan. 11—12-asrlarda RIMda vayron etilgan antik binolar o‘rnida qasrlar, cherkov qurilishlari boshlab yuborildi. 1143 yilda Papa hokimiyatiga qarshi qo‘zg‘olonlar natijasida RIMda respublika o‘rnatildi. O‘rta asr RIMining hayoti uning katolik dunyosi markazi bo‘lganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Bu yerda "Muqaddas Rim imperiyasi" imperatorlariga toj kiydirish marosimlari o‘tkazilgan. 1309 yilda Papalar qarorgohining RIMdan Avinon shahriga ko‘chirilishiga bog‘liq holda shaharda savdohunarmandchilik rivojlanib bordi. 15—16-asrlarda Uyg‘onish davriga kelib RIM yanada ravnaq topdi. RIMdagi ko‘plab rassom, me’mor va boshqa ijod axlining faoliyati aynan shu davr bilan bog‘liq.



1798—99 yillarda 1Rim respublikasining, 1848—49 yillarda Rim respublikasining markazi. 1871 yil 26 yanvardan RIM — Italiya qirolligi poytaxti. 1943—44 yillarda nemis fashistlari qo'shini RIMni bosib oldi, 1944 yilda ulardan ozod qilindi. 1946 yildan Italiya Respublikasi poytaxti.

2. Salamin jangi haqida ma'lumot bering.

Yunonlar va forslar o'rtasidagi hal qiluvchi dengiz jangi **mil.avv. 480-yilda**, tor *Salamin bo'g'ozida* bo'lib o'tdi. Yunonlarda 200 ta harbiy kema-triyeralar mavjud edi. Bu kemalar qoyalar orasidan va sayoz joylardan oson suzib o'tar, o'sha davr uchun katta tezlikda — soatiga 18 kilometr tezlikda suza olgan. Yunon shahar-davlatlarining birlashgan fl o'ti forslarning harbiy fl otidan kuchli bo'lgan. Yengilganidan keyin Kserks Yunonistonni stark etishga majbur bo'ldi.

16-BILET

1. Qadimgi Xorazm davlati haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. IV asrda Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va salavkiylar hukm ronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini d ehqonchilik tashkil etgan. Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi miloddan avvalgi VII asrga borib taqaladi (Ko'zaliqir shahri xarobalari). Bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (*Qal'aliqir* shahri xarobalari). Miloddan avvalgi III-II asrlarda *Jonbosqal'a* Xorazmning qadimgi shahri bo'lgan. *Qo'yqirilganqal'a* xarobalaridan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari t opilgan. Milodiy II-III asrlarda *Tuproqqal'a* shahrida bundan ham ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa, yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan. Qasrdagi saroy devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, shuningdek, hayvonlar va qushlar tasviri bilan bezatilgan. 20 dan ortiq bo'yagan loy haykallar zallardan biridagi tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan. Xorazmda ayniqsa hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis asboblar, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va dasht ko'chmanchilarini bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lordan muhim karvon yo'llari o'tgan. **Mil. avv. I asrda** va milodiy dastlabki asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv Xorazm hududidan topilgan. Bular *Oybo'yirqal'a* (miloddan



avvalgi V–IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga bitilgan yozuv va Qo‘yqirilganqal’adan topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir (miloddan avvalgi III–II asrlar). Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

2. Marafon jangi haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. 490-yil fors harbiy fl oti Egey dengizini kesib o‘tdi va ttika sohiliga langar tashladi. *Marafon tekisligiga* nayza, xanjar va o‘q-yoylar lan qurollangan fors suvoriylari va piyoda jangchilari kemadan tushadilar. Unionlar forslarga qaraganda kam sonli edi. Shuning uchun ular fors ivoriylari uchun noqulay bo‘lgan qoyali balandliklarga rnashib oldilar. Yunon lashkari forslarni Attika ichkarisiga oradigan yo’llardan to’sib qo’ydi. Biroq ular ochiq jangga kirishdan chochir dilar. Bir hafta o‘tdi. Sarkarda Miltiad boshchiligidagi jangovar falanga tartibida iflangan yunonlar Marafon tekisligida fors qo’shinlariga qarsi hujum oshladilar. Qattiq jangda yunon qo’shinlari forslarni qochishga majbur qildi. orslar o‘z kemalariga qarab chekinishga majbur bo‘ldilar. Yunonlar forslarning ettita kemasini egallab olganlar, boshqa kemalar qochib qolgan. Marafon angidagi g’alabani Afinaga yetkazish uchun bir jangchi shaharga qarab ugurdi. Naq 42 kilometr yo’lni chopib o’tgan jangchi «G’alaba! G’alaba!», deb u zahotiyoy quragi yorilib, jon bergen. Keyinchalik olis masofaga yugurish Iarafon yugurishi deb atala boshlandi.

17-BILET

1. Ahamoniylar davlati.

Mil. avv. 558-yilda ahamoniylar sulolasidan bo‘lmish podsho *Kir II* barcha forslarni o‘z hokimiyyati ostida birlashtirdi. Midiya pod sholigini bo‘ysundirganidan so‘ng, Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini da yom ettirdi. Armaniston, Lidiya va Bobil zabit etildi. Forstar O‘rtayer dengizi sohiliga chiqdilar, Falastin va Finikiyani bo‘ysundirdilar. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari *Kambiz II* va *Doro I* davom ettirdi. Kambiz II Misrni zabit etish orqali Fors davlati hududini niroyatda kengaytirdi.

2. Yunonistonning qulashi haqida ma’lumot bering.

Yunoniston shaharlari birbirlari bilan urushayotgan paytda Makedoniya podshosi *Filipp II* Yunonistonni bosib olishni ko‘zlaydi. Uning qo’shinlari suvoriylar va piyodalardan tashkil topgandi. Piyoda qo’shinlar 16 qatorдан iborat *falangada* safl anardi. Falanganing oltinchi qatoridagi nayza birinchi qatoridagi jangchini muhofaza etardi. Jang paytida butun falanga zirhlangan temir maxluqotga o‘xshab qolar edi. Falanga qanotlarini otliqlar himoya

qilardilar. Filipp II Yunonistonga qarshi harbiy yurish qilishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi. Mashhur notiq *Demosfen* Ellada shahalarini kezib, ularning aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da’vat etadi. Fiva va ayrim boshqa shaharlar aholisi Filipp II qo‘sishnalariga qarshi Afi na ittifoqiga qo‘shiladi. **Mil. avv. 338- yilda** yunonlar va makedonlarning asosiy kuchlari *Beotiyadagi Xeroniya* shahri yaqinida to‘qnashadilar. Qattiq jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo‘llagan yunonlar ustunlikni qo‘lga oladilar. Makedonlar chekina boshlaydilar. G‘alaba qilayotganigan ishona boshlagan yunonlar ular ni quvishga tushadilar. Yunonlarning qo‘sishnari shunda ikki bo‘lakka ajraladi. Ana shu bo‘laklardan biriga Filipp II ning o‘g‘li *Aleksandr* qo‘mondonlik qilayotgan suvoriy qo‘sishlar qaqshatqich zarba beradi. Yunon qo‘sishnari chekina boshlaydi va tor-mor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo‘ldi. Xeroniya ostonasidagi jangdan so‘ng mag‘lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniyaga qaram bo‘lib qoldi. «*Yunonlar ozodligi Xeroniya ostonasida halok bo‘lganlar bilan birgalikda dafn qilindi*», degan edi Demosfen. Bu mag‘lubiyatdan keyin Yunoniston aholisi o‘z cismatini qo‘rquv bilan kutib turishdi. Biroq Filipp II o‘zini yunonlar podshosi deb e’lon qilmaydi. Filipp II yunonlar bilan birlashib, forslarga qarshi ittifoq tuzadi. **Mil. avv. 337-yilda** Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari Korinfga yig‘ildilar va Makedoniya hokimiyyati ostida forslarga qarshi yurish maqsadida yunon shaharari ittifoqini tuzdilar. Ular murosada tinch-totuv yashash, o‘zaro urushlar olib bormaslik va bir-birining ichki ishlariga aralash maslik to‘g‘isisida bir qarorga keldilar. Biroq Filipp II forslarga qarshi yurishini amalga oshira olmasdan vafot etdi. Uning o‘g‘li Makedoniyalik Aleksandr hukmdor bo‘idi.

18-BILET

1. Sparta shahar-davlati.

Mil. avv. XII asrda Janubiy Yunonis ton (*Lakonika*) hududiga d’oriylar qabilasi bostirib kirdi. Ular Sparta shahar-davlatiga asos soldilar.

Sparta eng yuqor yunon davlatlaridan biriga aylandi. Spartaликлар qulga aylantirgan mahalliy aholi – *ilotlar* ham aslida yunonlar bo‘lib, ular bilan bir tilda so‘zlashgan. Ilotlar spartaликлардан qattiq nafratlanar edi. Bunday sharoitda o‘z hukmronligini faqat kuchbilan saqlab qolish mumkin bo‘lgan. Shuning uchun ham spartaликлар o‘z davlatlarida alohida shart-sharoitlar yaratdilar, jumladan, hamma qat’iy intizomga amal qilar, yengilganlar shafqatsiz jazolanardi. Sparta urushga tayyorgarlik ko‘rayotgan bir shaharga o‘xshab qolgan. Chet elliklar Spartaga kiritilmagan. Savdo-sotiқ sust rivojlangan, san’at asarlari, chirolyi ibodatxonalar ham bo‘lmagan. Hamma uylar bir-biriga o‘xshatib qurilgan.

Ilotlar kichik-kichik qishloqlarda yashaganlar. Ular butun boshli davlatning mulki hisoblanardilar. Ilotlar alohida spartaликлар oilasi



yeriga ishlov berib, chorvani boqishgan va boshqa majburiyatlarni bajarishgan. Spartaliklar esa faqat jangchi edilar. Ular dehqonchilik bilan ham, chorvachilik bilan ham shug‘ullanmaganlar.

2. Rim imperiyasining qulashi haqida ma ’lumot bering.

Rimning kuchli go’shini tashqi dushmanlardan himoyalanish va qo’shni mamlakatlarning yerlarini bosib o lish uchun zarur edi. Dastlab qo’shinga yermulkka ega bo’lgan rimliklar olingan. Keyin chalik qo’shin doimiy harbiy kuchga aylangan. Armiyada 17 yoshga yetgan erkak fuqarolar xizmat qila olgan. 80 kishidan iborat jangchilar guruhi senturiyalar deb yuritilgan. Bir necha senturiyalar kogortani, 10 ta kogorta legionni tashkil etgan. Jangchilar ning ko’pchiligi yaxshi ta’lim olgan askarlar bo‘lib, ular maosh olishlardan tashqari kiyim va yarog‘-aslahalar bilan ta’minlangan. Xizmat muddati 25 yil bo’lgan. Shuncha muddatdagi xizmati evaziga legio ner uy-joy durustgina oylik maosh olish va Rim tarkibidagi turli o’lkalarda xizmat qilish imkoniyatlariga ham ega bo’lar edi.

Rimliklar o’ziga xos jang olib borish taktikasini ishlab chiqishgan: avvaliga shahar qurshab olinar, so’ngra esa katapulta degan qamal quroli bilan devorlarni teshishar va shaharga bostirib kirishar edi. Pishiq me tal taxtachalardan tiklangan uzun ko’tarma minoralar yordamida baland devorlardan o shib o’tardilar.

19-BILET

1. Rim imperiyasining o’ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.

2. Doro I ning saklarga qarshi yurishi haqida ma ’lumot bering.

Doro I hukmronligining uchinchi yili da saklar ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida ham Behistun bitiklarida shunday deyilgan: «*Shoh Doro ayturki: keyin qo’shin bilan saklar mam lakatiga yurish qildim. Keyin uchi o’tkir kuloh ki yib yu ruv chi saklar jangga kirdilar. Men daryo dan o’tgach, saklarni tamoman tor-mor keltir dim, qolgan qismini asirga ol dim... Ularning Skunxa degan sardorini qo’lga tu shirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men u’larga boshqa bir sardor tayinladim.*

Men shunday bo’lishini xohladim. So’ngra bu mamlakat menga tobe bo’ldi». Ayni paytda bu yurish haqida tarixchi Poliyen (**miloddan avvalgi II asr**) keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. *Saklar rivoyatiga asoslanib, unda hikoya qilinishicha, forslarning qoshiga sak qabilasidan bo’lgan cho’pon Shiroq keladi, u fors qo’shinlarini o’zidan boshqa hech kim bilmaydigan so’qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suvsiz cho’lu-biyobon bo’ylab yetti kun yo’l bosishgach, tashnalikdan do’zax azobini chekayotgan forslar o’zlarining aldanganliklarini sezib qoladilar. Forslar jasur cho’ponni o’ldiradilar, Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.*



20-BILET

1. Qadimgi Italiya tabiiy sharoiti va aholisi.

Apennin yarimorolida iqlim iliq bo‘lib, yil bo‘yi o‘rtacha yomg‘ir yog‘ardi. Yarimorolni to‘liq egallagan Italiya zaminida qurg‘oqchilik ham, qattiq sovuq ham bo‘lmadi. Yegulik mahsulotlar mo‘l-ko‘lligi va tuproq unum dorligi tufayli ko‘p asrlar davomida qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Qadim zamonlardan boshlab Apennin yarimorolida turli xil qabilalar yashagan. *Lig‘urlar* Italiyaning qadimgi qabilalaridan biri bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. «Italiya» so‘zi (yunoncha «vitulus» so‘zidan) *buqa*, *buzoqcha* ma’nosini bildiradi. **Mil.avv. VIII-VI asrlarda** Italiya sohillarida koloniyalarga asos solgan yunonlar bu mamlakatda sigirlarni o‘tlatish uchun ajoyib o‘tloqlarni topganlar. Apennin yarimorolidagi eng katta daryo *Po* daryosidir. Yarimorolning qabilalari *italiklar* deb nomlangan. Italiyaning shimoli-g‘arbiy qismida *etrusklar* yashagan. Ularning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lgan.

2. Xristianlikning vujudga kelishi haqida ma’lumot bering.

Milodiy I-asr boshlarida Rim hokimiysi ostida bo‘lgan Falastin yerlaridagi *Vifl eem* shahrida «Xudoning o‘g‘li» nomini olgan *Iso* tug‘ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan. *Rivoyatlarga ko‘ra*, 30 yoshida *Iso* o‘n ikki nafar havoriyilar (*apostollar*) bilan Falastin bo‘ylab sayohat qilib, Xudo oyat lari haqida hikoya qilib beradi va mo‘jizalar ko‘rsatadi – yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni davolaydi. *Mahalliy ruhoniylar Iso* payg‘ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o‘lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi Pontiy Pilat bu hukmni tasdiqlagan. *Rivoyatlarga ko‘ta*, *Isoni* yer yuzidagi ilk inson – *Odam* ato dafn etilgan Golgofa tog‘ida xochga tortganlar.

Vafotidan keyin murdasini bir g‘orga qo‘yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun

kelishganlarida Iso Mash jasadi qo‘yilgan joyida yo‘qligini ko‘rishadi. Odamlar Iso payg‘ambarning qayta tirilib, me’rojga ko‘tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishiga ishonganlar. Iso Masih haqidagi rivoyatlar *Yevangeliya* (*Injil*) nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so‘z «Xushxabar» ma’nosini anglatadi. Iso payg‘ambar ta’limoti izdoshlari *xristianlardir*. Shogirdlari apostollar (havoriyilar) deb atalgan. Xristianlar jamoalariga yepiskopolar peshvolik qiladi. **Milodiy I asr** – xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi.

27-BILET

1. Qadimgi Mesopotamiyadagi shahar-davlatlar haqida ma’lumot bering.

Mesopotamiyada *Uruk*, *Umma*, *Lagash*, *Ur* va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular shahar va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo‘lgan shahar-davlatlar edi. Har bir shaharning hukmdori oliy xudo –

shahar homiysi hisoblangan. Xudo nomidan kohinlar hukmronlik qilgan. Xudolar ibodatxonasi esa davlatdagi hokimiyat markazi bo‘lgan. Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalar – *zikkuratlar* xom g‘ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo‘lgan.

2. *Spartak qo‘zg‘oloni haqida ma’lumot bering.*

Mil. avv. 74-yilda boshlangan *Spartak* boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo‘zg‘olonlardan biri bo‘ldi. Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik mакtabiga sotib yuborilgan frakiyalik qul *Spartak* qullarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda *Spartak* va uning 200 ga yaqin tarafdarlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular *Vezuviy* tog‘idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo‘sila boslliadi va qo‘zg‘olon ko‘targanlar safi kengaya bordi. Ko‘p o‘tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarni tor-mor etishga jo‘natilgan uch ming kishilik qo‘sish *Vezuviy* tog‘lari yaqinida harbly lager tikladi. Qamal boshlandi. *Spartak* kutilmaganda

dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan naryon to‘qib, ko‘rinmaydigan tarafdan cho‘qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergen *Spartak* ularni tor-mor etdi. Ammo ko‘p o‘tmay qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida iktilof paydo bo‘ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o‘z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko‘pgina qullar esa manzlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi. *Spartak* qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligidagi ko‘p ming sonli qo‘sish jo‘natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro‘y bergen hal qiluvchi jangda *Spartak* lashkari tormor etildi, uning o‘zi esa ana shu jangda halok bo‘ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig‘idagi yo‘l bo‘ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

22-BILET

1. *Qang‘ davlatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.*

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang‘yuy* deb atalgani ma’lum. **Mil. avv. III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa – *Qang‘xa* shahar-qal’asi saklarning o‘sha kezlardagi poytaxti *Qang‘dez* bo‘lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. *Qang‘* davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo‘ylab joylashgan. Miloddan avvalgi II asr oxirida *Qang‘* qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hu kmdorlari o‘z nomidan tangalar zarb qildir ganlar. *Qang‘* davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo



etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o‘troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati v ujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i o‘tganligi davlat iqtisodining

gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko‘chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu urushlarda qang‘arlar (Qang‘ davlati aholisini shunday atashgan) ko‘pincha g‘olib chiqar edilar. Milodiy III asrda Qang‘ davlati parchalanib ketdi.

2. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi haqida ma’lumot bering.

Rimning kuchli go‘smini tashqi dushmanlardan himoyalanish va qo‘smini mamlakatlarning yerlarini bosib o lish uchun zarur edi. Dastlab qo‘sning yermulkka ega bo‘lgan rimliklar olingan. Keyin chalik qo‘sini doimiy harbiy kuchga aylangan. Armiyada 17 yoshga yetgan erkak fuqarolar xizmat qila olgan. 80 kishidan iborat jangchilar guruhi senturiyalar deb yuritilgan. Bir necha senturiyalar kogortani, 10 ta kogorta legionni tashkil etgan. Jangchilar ning ko‘pchiligi yaxshi ta’lim olgan askarlar bo‘lib, ular maosh olishlaridan tashqari kiyim va yarog‘-aslahalar bilan ta’minlangan. Xizmat muddati 25 yil bo‘lgan. Shuncha muddatdagi xizmati evaziga legioner uy-joy, durustgina oylik maosh olish va Rim tarkibidagi turli o‘lkalarda xizmat qilish imkoniyatlariga ham ega bo‘lar edi.

Rimliklar o‘ziga xos jang olib borish taktikasini ishlab chiqishgan: avvaliga shahar qurshab olinar, so‘ngra esa katapulta degan qamal quroli bilan devorlarni teshishar va shaharga bostirib kirishar edi. Pishiq me tal taxtachalardan tiklangan uzun ko‘tarma minoralar yordamida baland devorlardan o shib o‘tardilar.

23-BILET

1. Qadimgi Hindiston hududi va tabiiy sharoiti.

Hindiston mamlakati shu nomdagi yarimorol hamda Osiyo qit’asining Hind va Gang daryolari vodiylarining bir qismini egallagan. Iqlimining issiqligi va keng yoyilib oqadigan daryolar suv bilan birga serunum

loyqani oqizib kelishi dehqonchilik vujudga kelishi va rivoj topishi uchun imkoniyat yaratdi. Himolay tog‘lari shimolisharqdan dushmanlar va sovuq shamollar tajovuzidan o‘ziga xos tabiiy «mudofaa devori» bo‘lib xizmat qilgan. Gang vodiysidagi tropik o‘rmonlar ulkandaraxtlar va rang-barang o‘simliklarga boy bo‘lgan.

2. Puni urushlari haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. III asr o‘rtalariga kelib, Rim butun Italiyani zabit etishga erishdi. Shu tariqa Rim davlatining hududi kengayib bordi. Bu paytda Shimoliy Afrikaning sohillarini, Sardiniya, Korsika orollarini o‘z ichiga olgan qudratli davlat – Karfagen quldorlari Sitsiliya orolining g‘arbiy qismini egallab olgan

edilar. Aynan Sitsiliya masalasi Rim va Karfagen o‘rtasidagi urush boshlanishiga sabab bo‘ladi. Rimliklar Karfagen bilan uch marotaba urushdilar. Bu urushlar tarixga *Puni urushlari* nomi bilan kirgan edi, negaki, rimliklar Karfagenni Puna deb atashardi. Birinchi urushda rimliklar g‘alaba qozondilar va Sitsiliyani bosib olib, karfagenliklarni o‘zlariga o‘lpox to‘lashga majbur qildilar. Karfagen quldorlari Ispaniyaning katta qismini bosib oldilar. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda *Gannibal* boshchilik qilardi. Gannibal qo‘sishnalarining Ispaniyadan Italiyaga qarshi yurishlari tufayli ikkinchi Puni urushi boshlandi. Karfagen armiyasi *Alp* tog‘lari etaklariga yetib bordi. O‘tib bo‘lmasdek tuyulgan tog‘lardan oshgan *Gannibal* Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirdi va **mil. avv. 216-yilda** *Kann* yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi. Bu jangda 70 ming rimlik legioner halok bo‘lgan. Mag‘lubiyatdan keyin rimliklar hal qiluvchi janglarga botina olmaganlar. Italiya aholisi *Gannibalni* qo‘llab-quvvatlamadi, chunki Karfagen yollanma qo‘sishnari mamlakatni talontaroj qilib tashlagan edi. Rimlik sarkarda *Ssipionning* kutilmaganda o‘z qo‘sishnari bilan Afrika qirg‘og‘iga kelib tushganidan xabar topgan *Gannibal* Karfagenni himoya qilishga otlanadi, ammo **mil. avv. 202-yilda** uning lashkari *Zama* shahri yaqinida (Shimoliy Afrika) rimliklar tomonidan tor-mor etildi. Karfagen Rimga taslim bo‘lib, katta miqdordagi boylik bilan tovon to‘lashi kerak edi. Biroq vaqt o‘tib, Karfagen o‘z qudratini tiklashga harakat qiladi. Uchinchi Puni urushida rimliklar Karfagenni qamal qildilar. Shahar aholisi ikki yil Karfagenni mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar shaharga hujum qilib, o‘t qo‘yishar edi. Shunday qilib, **mil. avv. 146-yilda** Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo‘sishnari esa g‘alaba sururi, talangan o‘lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldilar.

24-BILET

1. Rim respublikasi.

Rim hukmdorlari muhim masalalarni muhokama qilish uchun *Xalq majlisini* chaqirganlar. Xalq majlisi urush e’lon qilar, sulk tuzar, qonunlarni tasdiqlar va bekor qilar, barcha muhim mansabdor shaxslarni tayinlar edi. Bu majlisning qarorini *Senat* tasdiqlagan, lotinchadan tarjima qilinganda «senat» so‘zi «*oqsoqollar kengashi*» degan ma’noni anglatadi. Rimning tub aholisi *patritsiylar*, Rimga ko‘chib kelgan odamlar va ularning avlodlari *plebeylar* deb atalgan. Rim boshqaruvida faqat patritsiylar ishtirok eta olar edi. **Mil. avv. VI asr oxiridan** Rim davlati *respublika* deb yuritila boshlangan. Lotinchadan tarjima qilinganda «*respublika* » so‘zi «*xalq ishi, umumiy ish*» degan ma’nolarni anglatadi («res» – ish, «publika» – xalq). Xalq majlisi patritsiylardan ikki kishini bir yil muddatga hokim qilib saylagan. Ular *konsullar* deb atalgan.

Badavlat odam turli yo'llar bilan saylovchilarni o'z tarafi ga og'dirib, bepul tushlik uyushtirishgan, sovg'a-salom tarqatishgan va shunga o'xhash ishlarni amalga oshirishgan. Saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat kishilar «*kandida*» deb ataluvchi oq-harir libos kiyib olishgan. Hozirgi «*kandidat*», ya'ni qandaydir lavozimni egallahga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma'nosini beruvchi so'z ham «*kandida*»dankelib chiqqan. Oq rang nomzodning vijdoni ham uning libosidek beg'ubor va pokiza bo'lishi kerakligini bildirgan Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo'lган. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisini tomonidan qabul qilinmasdi. Asosiy mansabdor shaxslar – konsullar esa bevosita davlatni boshqarar edilar. Qadimda eng tajribali va hummatli kishilar Senatda o'rin egallagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan konsullar hech bir saylovsiz Senatda o'rin egallab oladigan va uning umrbod a'zosiga – *senatorga* aylanadigan mavqega erishdilar. Urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo'zg'oloni ro'y berganda *diktator* va uning o'rinnbosari – qo'shinlar boshlig'i etib tayinlanardi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lган. Ammo u hokimiyatda olti oydan ko'p tura olmas edi. Yunonlarning dengizdagi sayohatlari haqida ma'lumot bering.

2. Yunon-fors urushlari haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. V asr boshlarida Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Doro I hukmronlik qilayotgan Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilgan. Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari paydo bo'lib, ular: «*Bizning hukmdorimiz, buyuk shahanshah Doro, kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan- bir egasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir*», deb baralla aytishardi. Yunonistonidagi ayrim shaharlar aholisi forslarga qarshilik ko'rsatishning sira iloji yo'q deb hisoblab, shoh Doro I ning shartlarini qabul qilishga rozi edilar.

Afi na va Sparta bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afi naga kelganda, shahar aholisi g'azabdan ularni o'ldirib, qoyadan tashlab yubordilar. Elchilarni chuquq quduqqa tashlab yuborgan spartaliklar esa zaharxandalik bilan: «*Suvni ham, yerni ham quduq tubidan yetarlicha olasizlar*» deyishgan ekan. Fors shohi dastlab Kichik Osiyodagi yu non shaharlarini bosib olib.

25-BILET

1. Elam davlati.

Mil. avv. 3-ming yillikda

Eronning janubi-g'arbiy qismida *Elam* davlati vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti *Suza* shahri bo'lган. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan. Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan *Midiyada* qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. Mil. avv. VII asrda podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oladi. Eronning janubida, Fors



ko‘rfaziga tutashib ketgan yerlarda Fors viloyati – qadimgi forslar o‘rnashgan o‘lkajoylash gan.

2. Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa tomon istilochilik yurishlari haqida ma’lumot bering.

Aleksandr **miloddan avvalgi 336-yilda** Makedoniya podshosi bo‘ladi. Shu yili u 20 yoshga to‘lgan edi. *Makedoniyalik Aleksandr* g‘ayrioddiy kuch-g‘ayrat va jasurlik sohibi bo‘lgan. Safdoshlari va qo‘sishlari unga nihoyatda sadoqatli edi. **Mil. avv. 334-yilda** u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya,

Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. *Makedoniyalik Aleksandr* ulkan hududda o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi. **Mil. avv. 330-yilda** Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo‘lgan oxirgi shoh *Doro III ning* qo‘sishinlarini tor-mor keltirdi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo‘sishinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida Amudar yoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishga qaror qildi. Birinchi bo‘lib uning yo‘lini to‘sган shahar Baqtriya poytaxti *Baqtra* (Zariaasp) bo‘ldi.

Bu vaqtida ahamoniylar sulolasining vakili *Bess* Baqtriyaning satrapi bo‘lgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafi ga qochib ketadi. Makedoniyalik Aleksandr o‘z ustozi, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o‘tgani, ikkalasi ham mag‘lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi lozimligi to‘g‘risidagi maslahatini yodda tutar edi. **Mil. avv. 329-yilda** Makedoniyalik Aleksandr qo‘sishlari *Oks* – Amudaryodan o‘tib oldilar. Qo‘sishlar yurishlari yo‘nalishida esa

Nautaka (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va *Maroqanda* shahri (Samarqand) turar edi. Miloddan avvalgi 329-yilda yunon-makedonlar

Maroqandani egalladi. Aleksandr qo‘sishlarning bir qismini shu yerda qoldirib, o‘zi *Kurushkat* (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg‘oqlari sari yurdi. Rivoyatga ko‘ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan ekan. So‘g‘diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadi. Tez orada so‘g‘diylarga baqtriyaliklar va saklar qo‘shiladilar. Qo‘zg‘olonga iste’dodli tashkilotchi va harbiy yo‘lboshchi *Spitaman* boshchilik qiladi. Ancha qo‘sish to‘plagan Spitaman Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda

qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo‘sish jo‘natadi. Qadimda «*Politimet*» deb atalgan Zarafshon daryosi bo‘yida makedonlarga pistirma qo‘ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o‘zi qo‘zg‘oltonni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni to‘xtatadi va o‘z qo‘sishlarini sahro sari boshlab ketadi. Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo‘yida, Xo‘jand yaqinida qal’a barpo etish to‘g‘risida buyruq beradi. Bu qal’a *Aleksandriya Esxata*



(Chekka Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo'shin qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlash uchun *Zariasp* (Baqtra)ga jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'oltonni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi. **Mil. avv. 328-yil** kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Kuchlar teng bo'lmanidan Spitaman yengilib, yana cho'lga chekinadi. O'sha yerda u xoinlarcha o'ldiriladi. Spitamanning o'limi so'g'diyalar va baqtriyaliklar irodasini buka olmadi. Aleksandr so'g'd zodagonlari – *Xoriyen* va *Oksiartning* Hisor tog'larida joylashgan qal'alarini qo'lga kiritib, Oksiartning qizi *Ravshanakka* uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e'tiborli so'g'd zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutinadi. O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo'lman hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'yalarini bo'ysundirishgamuvaffaq bo'ldi, xolos. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldi.

26-BILET

1. *Midiya davlati haqida ma'lumot bering*

Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan *Midiyada* qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. **Mil. avv. VII asrda** podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida Midiya qudratlari davlatga aylandi. Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oladi. Eronning janubida, Fors ko'rfafiga tutashib ketgan yerlarda Fors viloyati – qadimgi forslar o'rashgan o'ka joylash gan.

2. *Kir II ning massagetlar hududiga bostirib kirishi.*

Mil. avv. 530-yilda Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qildi. Bu yurish to'g'risida «tarix otasi» Gerodot hikoya qilib bergen. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularning malikasi

To'maris bosqinchilarga tinch-omon qaytib ketishni taklif qiladi. Ammo fors shohi bu taklifni rad etadi va Amudaryodan kechib o'tishni boshlash to'g'risida farmon beradi. Gerodot massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning jangi to'g'risida shunday hikoya qiladi: «*Bu jang... barcha janglardan ham dahshatliroq edi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga keltirmasdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning*

qo'li *baland* *keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi.*

27-BILET

1. Yangi Bobil podsholigi.

Navuxodonosor II hukmronligi davrida Yangi Bobil podsholigi o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishadi. Bu hukmdor Misrni *Yangi Bobil* podsholigiga qo‘sib oladi, *Iyerusalim* (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi, Bobilni esa mustahkam qal’aga aylantiradi. Navuxodonosor II turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g‘ishtdan foydalanish to‘g‘risida farmon beradi. U hukmronlik qilgan davrda Bobil shahrining sakkizta darvozasi bo‘lgan, ulardan har biri mamlakat bosh xudolaridan birining nomi bilan atalgan. Ayniqsa, iloha Ishtar nomidagi darvoza chiroyli va nafi s bo‘lib, afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan koshin toshtaxtachalar bilan bezatilgan. Qadimgi forslar lashkari **mil. avv. 539-yilda** Bobilga bos tirib kiradi va shaharni zabit etadi. Shu paytdan boshlab Yangi Bobil podsholigi Fors davlati tarkibiga kiradi.

2. Spartak qo‘zg‘oloni haqida ma’lumot bering.

Mil. avv. 74-yilda boshlangan *Spartak* boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo‘zg‘olonlardan biri bo‘ldi. Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik mактабига sotib yuborilgan frakiyalik qul *Spartak* qullarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda *Spartak* va uning 200 ga yaqin tarafdarlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular *Vezuviy* tog‘idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo‘sila boshladgi va qo‘zg‘olon ko‘targanlar safi kengaya bordi. Ko‘p o‘tmay ularning soni 10 ming kishi ga yetdi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarni tor-mor etishga jo‘natilgan uch ming kishilik qo‘shin *Vezuviy* tog‘lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. *Spartak* kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to‘qib, ko‘rinmaydigan tarafdan cho‘qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergen *Spartak* ularni tor-mor etdi. Ammo ko‘p o‘tmay qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida ixtilof paydo bo‘ldi. Qullarning bir qismi Rimni tank etib, o‘z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko‘pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quzdorlardan qasos olishga ahd qilishdi. *Spartak* qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchilida ko‘p ming sonli qo‘shin jo‘natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro‘y bergen hal qiluvchi jangda *Spartak* lashkari tormor etildi, uning o‘zi esa ana shu jangda halok bo‘ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig‘idagi yo‘l bo‘ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

28-BILET

1. Kushon davlati.



Mil. avv. 140–130-yillar oralig‘ida ko‘chmanchi *yuechji* qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. *Yuechjilar* Baqtriya yerlariga kelib o‘rnashadilar va **milodiy I asrda** *Guyshuan* (Kushon) xonadonining boshlig‘i barcha *yuechji* mulkclarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos soladi. Birlashgan *yuechji* qabilalarining birinchi hukmdori *Kudzula Kadfi* z bo‘lgan. Kudzula Kadfi z hukmronligi davrida Afg‘oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo‘sib olingan. Uning vorisi *Vima Kadfi* z hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi.

Podsho *Kanishka* hukmronligi zamonida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston)ga ko‘chiriladi, Kushon podsholigi esa ulkan davlatga aylanadi. Uning hududiga Hindiston, Xo‘tan, Afg‘oniston va O‘zbekistonning janubigacha bo‘lgan yerlar kirgan. Rim, Parfi ya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan podsholiklardan biriga aylangan.

To‘xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozgayuz tutdi va parchalanib ketdi.

2. Rimga asos solinishi haqida ma ’lumot bering.

Rivoyatga qaraganda, **mil. avv. 753-yilda** Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan asos solingan. *Dunyo ga kelganlaridan so ‘ng chagaloq larni savatga solib, Tibr daryosi bo ‘yiga tashlab ketadilar. Daryo bo yida ularni Ona bo ‘ri topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho’pon topib olib tarbiya laydi. Voyaga yetganlarida esa ular Tibr bo ‘yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Aka-ukalar janjallashib qolib, Romul o‘z inisini o ‘ldirib qo ‘yadi, shaharga esa o ‘z nomini beradi.*

29-BILET

1.Aleksandr Makedonskiy davlati.

Aleksandr 329 yil Baqtriyani egallagach, satrap Bess, Oke (Ukuz, Amudaryo) dan kechib o‘tib, Navtaka (Qashqdaryo vohasi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo‘lga olinib, qatl etilgan. So‘ng, A. Samarqand (Marokanda)ni egalla, Sirdaryo tomon yo‘l oladida, u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) deb ataydi. Umuman Aleksandring O‘rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilikka uchragan. Usrushonadagi yettila shahar-qal‘a A.ga qattiq qarshilik ko‘rsatgan.

Bularning ichida eng kattasi – Kiropol bo‘lib, Kir II uni boshqa shahar-qal‘alarga nisbatan baland devor bilan o‘rattirgandi. Uning ichida mahalliy aholining ko‘pchilik qismi, eng jangovar jangchilar to‘plangandi. A. shahar atrofiga xandaq qazittirgan, manjaniqlar (devorteshar mashinalar) bilan devorning bir necha yeridan teshik ochib, u yerdan shaharga bostirib kirmoqchi bo‘lgan. Bu urinishi natijasiz chiqqach, u harbiy hiyla ishlatib, shahar ichidan o‘tgan quruq daryo o‘zani orqali o‘zining xos jangchilari bilan shaharga kirgan. Kiropol mudofaachilari bilan Aleksandr jangchilari o‘rtasida shiddatli jang bo‘lgan. Unda A. boshi va bo‘yniga tosh tegib yarador bo‘lgan, bir qancha lashkarboshilari (Krater va boshqalar) kamon o‘qidan shikastlangan. Makedon qo‘smini katta qiyinchilik bilan shaharni egallagan. Shahar mudofaachilari (jami 15

ming) dan 8000 ga yaqini halok bo‘lgan, qolgani ichki qo‘rg‘onga yashiringan, so‘ng tashnalikdan qiynalib taslim bo‘lgan. Makedon qo‘shini qolgan shaharlarni ham shu tariqa qiyinchilik bilan egallagan.

Aleksandr mahalliy xalqning jasoratidan shu qadar xavotirga tushganki, Ptolemeyning aytishicha, u o‘z jangchilariga asir olingan kishilarni bo‘lib berib, to bu mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha ularni zanjirband holda saqlashni topshirgan.

Aleksandr Sug‘diyonada Spitamen qo‘zg‘olon ko‘tarib, Marokandani qamal qilgani (qarang Spitamen, Spitamen qo‘zg‘oloni) va Tanais ortidan saklar podshosining ukasi Kartazis boshchiligidagi katta qo‘shin unga yordamga yetib kelgani haqida xabar-dor bo‘lgach, qo‘zg‘olonchilarga qarshi 2000 kishilik qo‘shin jo‘natib, o‘zi saklar tomon qo‘shin tortgan (qarang Tanais daryosi bo‘yidagi jang). Mazkur qo‘shin tor-mor keltirilgach, A. shaxsan o‘zi katta kuch bilan Spitamenni dasht chegarasigacha ta‘qib qilib borib, ortga qaytishda 120 mingdan ortiq tinch aholini qirib tashlaydi, ko‘plab qishloq va qal‘alarni vayron qiladi, ekinzor, bog‘-rog‘larni payhon etadi. Aleksandr mil. av. 329–328 yillar qishini Zariaspa (Balx, Baqtra)da o‘tkazadi. Bahorda uning huzuriga xorasmiylar podshosi Farasman 1500 jangchisi bilan kelib o‘zaro ittifoq tuzishni taklif etadi. Aleksandr 328–327 yil boshida Sug‘diyonadagi tog‘lar ustida joylashgan qal‘alardagi qo‘zg‘olonchilarni bo‘ysundirishga juda ko‘p kuch sarflaydi, ularni mag‘lub qilgach, Oksartning qizi Roxshanak (Roksana) ga uylanadi (qarang So‘g‘d qoyasi, Xoriyen qal‘asi va boshqalar).

2. Yunonlarning dengizdagisi sayohatlari haqida ma’lumot bering.

Qadimgi Yunoniston — Bolqon ya.o.ning jan., Egey dengizidagi orollar, Frakiya sohillari, Kichik Osiyoning g‘arbidagi dengiz sohilida joylashgan qadimiy yunon davlatlari hududining umumiy nomi.

Tarixi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Yu. hududida odamlar paleolit davridan yashab kelmoqda. Xalkidika ya.o.dan neandertal odamining bosh suyagi chiqqan. Neolit davrida Yu. aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib, o‘troq hayot kechirgan. Yu.ning jez davri madaniyati shartli ravishda Kritmiken madaniyati yoki Egey madaniyati deb atalgan

30-BILET

1. Qang‘ davlati.

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang‘yuy* deb atalgani ma’lum. **Mil. avv. III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa –

Qang‘xa shahar-qal‘asi saklarning o‘scha kezlardagi poytaxti *Qang‘dez* bo‘lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. *Qang‘* davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo‘ylab joylashgan.

Miloddan avvalgi II asr oxirida *Qang‘* qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hu kmadorlari o‘z nomidan tangalar zarb qildir ganlar. *Qang‘* davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri



Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o‘troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati v ujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i o‘tganligi davlat iqtisodining gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko‘chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu urushlarda qang‘arlar (Qang‘ davlati aholisini shunday atashgan) ko‘pincha g‘olib chiqar edilar. Milodiy III asrda Qang‘ davlati parchalanib ketdi.

2. *Buyuk ipak yo‘lining vujudga kelishi haqida ma ’lumot bering.*

Milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G‘arb xalqlari o‘rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li muhim o‘rin tutgan edi. Bu yo‘l **miloddan avvalgi**

II asrda vujudga kelgan va «*Buyuk meridiana yo‘l*» deb atalgan. Bu yo‘lga «Ipak yo‘li» degan nom 1877-yilda nemis geografi F. Rixtgofen tomonidan berilgan. Buyuk Ipak yo‘li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo‘lgan.

bellashuv



Bellashuv.uz – Barcha fanlardan testlar banki

bellashuv.uz



Bellashuv.uz – Barcha fanlardan testlar banki

bellashuv.uz



Bellashuv.uz – Barcha fanlardan testlar banki

bellashuv.uz